

RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH JARAYONIDA INNOVATSION SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSLARI

Kadirova Gulbaxor Xikmatullayevna

Buxoro Osiyo Xalqaro universtiteti iqtisod yo'nalishi magistri

+99893 433 59 61 brave012001@gmail.com

Annotatsiya: *Korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligiga doimiy ravishda ichki va tashqi omillar o'z ta'sirini ko'rsatib turadi. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida ichki omillar qatoriga tadbirkorlik qobiliyati, korxonona personal, kommunikatsiya samaradorligi, korxonaning tashkiliy tuzilishi, innovatsion faoliyatning bozorga yo'naltirilganligi va innovatsiyalar uchun resurslarning yetarlilik darajasi kabi omillar kiradi. Korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillarga esa mamlakatda maslahat va konsalting xizmatlari, moliyaviy yordam, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va qonunchilik kabi omillar inobatga olinishi zarur.*

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, innovatsion boshqaruv, industrial tarmoqlar, integratsiya.*

Аннотация: *Внутренние и внешние факторы постоянно влияют на эффективность инновационного управления предприятием. В системе современных экономических отношений к внутренним факторам относятся предпринимательская способность, персонал предприятия, эффективность коммуникаций, организационная структура предприятия, ориентация инновационной деятельности на рынок, уровень достаточности ресурсов для инноваций. Необходимо учитывать внешние факторы, влияющие на эффективность инновационного управления предприятием, такие как консультационные и консалтинговые услуги, финансовая поддержка, стимулирование инновационной деятельности и законодательство в стране.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, инновационный менеджмент, промышленные сети, интеграция.*

Annotation: *Internal and external factors constantly affect the effectiveness of innovative enterprise management. In the system of modern economic relations, internal factors include entrepreneurial ability, enterprise personnel, communication efficiency, the organizational structure of an enterprise, the orientation of innovative activity to the market, and the level of sufficiency of resources for innovation. It is necessary to take into account external factors that affect the effectiveness of innovative enterprise management, such as consulting and consulting services, financial support, promotion of innovation and legislation in the country.*

Key words: *digital economy, innovation management, industrial networks, integration.*

Raqamli iqtisodiyotning paydo bo'lishi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va Global Internet tarmog'isiz tasavvur qilib bo'lmaydi. «Raqamli iqtisodiyot», AKT va Internet tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Hozirgi kunda mavjud bo'lgan Internet dastavval 1995-yilda vujudga kelgan. O'sha paytdan boshlab Internet orqali taqdim etiladigan turli xil xizmatlar - fayllarni uzatish, masofadan kirish (TELNET), elektron pochta, qidiruv tizimlari, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar bilan to'ldirilgan "virtual dunyo"ning paydo bo'lishi haqida gapirish mumkin. Bugungi kunda Internet ulkan ko'ngilochar, ta'lim, savdo, moliyaviy va siyosiy sohadir.

1995-yilda "Being Digital" kitobida Nikolas Negroponte "raqamli iqtisodiyot" atamasini qo'llagan. Ilmiy asarida uchta kesishidagan media tarmoqlarga (ommaviy axborot vositalari, (OAV) aloqa vositalari va kompyuterlar) asoslangan konvergentsiya modelini taklif etgan. Bunday birlashish natijasida *yangi (raqamli) media* shakllandi.

O'sha 1995-yilda Kanadalik iqtisodchi Don Tapscottning "The Digital Economy» kitobi nashrdan chiqadi. Unda Don Tapscott rivojlangan mamlakatlardagi jamiyatning evolyutsion tendensiyalarini tahlil qilish natijalarini bayon qildi. Axborot muhitni yangi iqtisodiyotga, ya'ni raqamli iqtisodiyotga aylantiradigan 12 muhim belgilarni keltirgan²¹.

Zamonaviy sharoitda turli mamlakatlar hukumatlari ilmiy sohaga, xususan tadqiqot va innovatsiyalarga katta miqdorda sarmoya kiritmoqda. Masalan, Germaniya tadqiqot va ishlanmalar uchun taxminan YAIMning 2,7%, AQSh - 2,8%, Yaponiya - taxminan 3,5% yo'naltiradi. Iqtisodiyoti o'tish davri mamlakatlari ancha kam: Belarusiya - YAIMning 0,74%, Rossiya - 1,04% sarflaydi²². Zamonaviy tadqiqotlarda innovatsiyalarni tasniflashning turlicha yondashuvlari mavjud. Innovatsiyalarni tasniflash innovatsiyalar guruhining o'ziga xos xususiyati, uning o'ziga xoslik tomonlarini ochib beradi. Tasniflashni amalga oshirish turli tasniflash

belgilaridan foydalangan holda sxemalar bo'yicha bo'lishi mumkin. Rus adabiyotlarida innovatsiyaning turli tasniflari berilgan. Masalan, A.N.Tsvetkov innovatsiyalar va ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarni turlicha asoslashni taklif qiladi. U innovatsiya va ilmiy - texnikaviy innovatsiyalar bir-birida farq qiladi deb hisoblaydi. Uning takidlashicha innovatsiya - bu jarayon, ba'zi bir yangiliklarni amalda qo'llashga asoslangan jarayon²³.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun²⁴ining qabul qilinishi "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturida nazarda tutilgan tegishli huquqiy zaminni yaratishga asos bo'la oladi.

²¹ G'.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli Iqtisodiyot asoslari Toshkent – 2020.B.8.

²² Хусаинов З.А. Инновационные процессы в образовании. – Казань-2014.

²³ Шайхуллина И.С. Инновационный менеджмент как средство повышения качества художественного образования в педагогическом университете.

²⁴ O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni.

Korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligiga doimiy ravishda ichki va tashqi omillar o'z ta'sirini ko'rsatib turadi. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida ichki omillar qatoriga tadbirkorlik qobiliyati, korxonalar personalini, kommunikatsiya samaradorligi, korxonaning tashkiliy tuzilishi, innovatsion faoliyatning bozorga yo'naltirilganligi va innovatsiyalar uchun resurslarning yetarlilik darajasi kabi omillar kiradi. Korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillarga esa mamlakatda maslahat va konsalting xizmatlari, moliyaviy yordam, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va qonunchilik kabi omillar inobatga olinishi zarur.

Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, yangi industrial tarmoqlarni shakllantirish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va ularni qayta jihozlash, mahsulotlar eksportini oshirish bilan bog'liq ishlar bevosita investitsion jarayon bilan bog'liq. Shunday ekan, sanoat ishlab chiqarishini taraqqiy ettirishga doir qabul qilingan me'yoriy aktlar bevosita investitsiya faoliyatini yuritishga oid tashkiliy-huquqiy hujjatlar bilan uzviy bog'liq ravishda ishlab chiqilishi va bir-birini to'ldirishi tabiiy. O'zbekiston Respublikasida ham investitsiya faoliyatiga oid ko'plab me'yoriy – huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning eng asosiysi bu “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanadi²⁵.

Bilimlar – biznesda va umuman iqtisodiyotda asosiy e'tibor inson kapitali – *bilimdan* foydalanishga qaratiladi. Raqamli iqtisodiyotda *Bilim* harakatlantiruvchi kuch bo'lib, boshqa an'anaviy manbalar ikkinchi darajali. Bilim bilan yangi imkoniyatlar tufayli kuch va hayotni yaxshi tomonga o'zgartirish yo'li keladi. Bu shuni anglatadiki, tashkilotlar xodimlar to'g'risidagi fikrlarini o'zgartirishga majburlanadi va ishchilarning aqliy qobiliyatini saqlab qolish va rivojlantirishga harakat qiladi.

Raqamlashtirish – endi bilimlarni raqamli ravishda saqlash mumkin. Oldingi iqtisodiyotda ma'lumotlar analogli yoki jismoniy bo'lgan va ma'lumot almashish faqat odamlarning bevosita aloqasi orqali amalga oshirilgan. Raqamli iqtisodiyotda axborotlar hisoblash qurilmalar yordamida raqamli shaklda ifodalangan. Bu dunyoning turli burchaklaridagi odamlar orasida qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi ma'lumotlarning erkin harakatlanishiga imkon beradi.

Virtuallashtirish – raqamli iqtisodiyotda jismoniy va moddiy Buyurmalarni virtual ko'rinishga aylantirish mumkin. Demak, turli xil munosabatlarga (sanoat, ijtimoiy va boshqalar), tegishli bo'lgan oldin qabul qilingan qoidalarni va iqtisodiy faoliyatning mazmun-mohiyatini o'zgartiradi.

Dinamizm – an'anaviy tashkiliy tuzilmalar yanada dinamik ish muhitiga yo'l beradi. Loyihalashtirishlari dunyoning turli burchaklaridan turib birga ishlayotgan odamlar tomonidan amalga oshirilsa yanada samaraliroq bo'ladi. Raqamli iqtisodiyotda ular “yengil tashkilot” deyiladi. Ular yangi sharoitlarda omon qoladi, “og'ir

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ID-9413-son “O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida” gi qarori.

tashkilotlar” esa statik, oxir-oqibat raqamli iqtisodiyot sharoitlarigamoslasha olomaganligi tufayli yo‘qolib ketadi.

Integratsiya – mikro darajada alohida tashkilot yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hisobiga kichik kompaniyalarning barcha afzalliklariga ega. Makro darajada, iqtisodiyot har doimgidek ishlaydi, chunki barcha ishtirokchilar – yetkazib beruvchilar, iste‘molchilar, raqobatchilar va boshqalar bir biri bilan aloqador bo‘lib birlashadi.

Vositachilarsiz ishlash – vositachilarda ehtiyoj bo‘lmaydi. Ko‘plab tashkilotlar o‘z mijozlari bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanadi, bu esa yetkazib beruvchilar va mijozlar o‘rtasida axborot almashinuvini yengillashtiradi.

Konvergensiya – iqtisodiyotning yetakchi sohasi hisoblanadi, aloqa va Internet texnologiyalarining yaqinlashuvi sifatida yaratilgan. Bular birgalikda raqamli iqtisodiyot bog‘liq bo‘lgan platformalardan biri bo‘lgan interfaol multimedia yaratadilar.

Innovatsiya – Raqamli iqtisodiyot yangi mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalangan holda innovatsiyalarga asoslanadi. Innovatsion iqtisodiyotda inson tasavvuri va ijodkorlik qiymatning asosiy manbai hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotda asosiy muammo innovatsiyalarni rag‘batlantiradigan va qo‘llab-quvvatlaydigan muhitni yaratish murakkabligi.

Ishlab chiqaruvchi-iste‘molchi munosabatlarining o‘zgarishi – sanoatlashgan jamiyatida muhim jihatlardan biri ommaviy ishlab chiqarish hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot davrida asosiy yo‘nalish mahsulot (mahsulot yoki xizmat) ni tashkil etishdir. Ayni paytda, iste‘molchilar o‘zi sotib olayotgan tovar yoki xizmatlari ishlab chiqaruvchisiga o‘sha mahsuloti haqida o‘z fikrini bildirishi, takliflar bildirishi, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni bildirishi mumkin.

Samaradorlik - mijozlar ko‘proq ma‘lumotga ega va sifatli xizmatni xohlashadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tufayli mahsulotni buyurtma qilish, ishlab chiqarish va yetkazib berish o‘rtasidagi vaqt oralig‘i keskin kamayadi.

Globallashuv – raqamli iqtisodiyotda, bilim asosiy resursga aylanganda, tashkiliy tuzilmalar o‘z hududlarida faoliyat yuritsa ham, faqat bitta jahon iqtisodiyoti mavjud. Globallashuv yangi axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini rag‘batlantiradi va amalga oshiradi. Bu shuni anglatadiki, tashkiliy tuzilmalar ko‘p millatli emas, balki global.

Kelishmovchilik – har bir yangi taraqqiyot ortidan bir o‘zgarish keladi, shuningdek, ular bilan qarama-qarshiliklar va sekin moslashish ham. Natijada mojaroli vaziyatlar yuzaga keladi. Raqamli iqtisodiyotda texnologik jihatdan savodli mutaxassislar va texnologiyaga kirish imkoniga ega bo‘lmagan mutaxassislar o‘rtasidagi farq o‘sib bormoqda va kelajakda jamiyat uchun jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish davr talabidir. Dunyodagi eng yirik tovar va resurs korxonalari elektron biznes va tijorat bilan bog'liq raqamli texnologiyalardan foydalanmoqda. Bu ularni raqamli tovarlar va xizmatlar bozori ishtirokchilariga aylantiradi, ular iste'molchilar va mijozlar sifatida ishlaydi, ba'zan esa yangi texnologiyalarni yaratadi va taklif qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotini yanada raqamlashtirish muhimligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yanvar oyida Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlangan. Davlatimiz rahbari raqamli iqtisodiyotga faol o'tishni kelgusi besh yillikning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi. 28 aprel kuni Prezidentning "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Hujjatga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida raqamli iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi yaxlit tizim yaratildi. Endilikda vazirlikning vazifalari qatoriga elektron tizimini rivojlantirish ham kiradi. 28 aprel kuni Prezidentning "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Hujjatga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida raqamli iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi yaxlit tizim yaratildi. Endilikda vazirlik vazifalariga elektron hukumatni rivojlantirish, iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini raqamlashtirish, IT-parklar faoliyatini tashkil etish va boshqarish kiradi. Shu bilan birga, qarorda yangi loyihalarni moliyalashtirish yo'nalishlari va zarur hajmlari ko'rsatilgan. "Elektron hukumat" tizimi doirasida 1,3 trillion so'mlik 104 ta, iqtisodiyotning real sektorida 5,3 trillion so'mlik 87 ta, telekommunikatsiyalar sohasida 15,1 trillion so'mlik 35 ta loyiha va boshqalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan serverlar sig'imi allaqachon tugab bormoqda, rejalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish esa 10 barobar ko'pni talab qiladi, shuning uchun qiymati 30 million dollarlik yangi data-markaz qurish zarur. Qarorga ko'ra, 2023-yilga qadar raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini ikki baravar oshirish va bu boradagi xizmatlar hajmini uch barobarga oshirish, ularning eksportini 100 million dollarga yetkazish ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-may kuni raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda bu ishni yaqin 2-3 yilda, har bir kechiktirilgan yilda to'g'liq yakunlamasak, oqibatlarga olib kelishini ta'kidladi. Mamlakatning 10 yillik taraqqiyotini yo'qotdi. Davlat rahbari iqtisodiyotni raqamlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq barcha vazirlik va idoralarga topshiriqlar berildi.

Axborot jarayonlarining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonida yuzaga keladigan asosiy muhim transformatsion effektlar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1) jahon sanoat mahsulotlari qiymatini yaratishda axborot resursi rolining oshishi; 2) sun'iy intellekt, qo'shimcha texnologiyalar va narsalar interneti

simbioziga asoslangan murakkab innovatsiyalar yordamida ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish; 3) axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi bozor munosabatlarini faollashtirish; 4) axborot mahsulotlari va xizmatlarini avtonom global bozor sanoatiga aylantirish. Axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va real iqtisodiy jarayonlarga tatbiq etish sur'atlarining tezlashishi an'anaviy bozor modeliga nisbatan ko'plab afzalliklarga ega virtual iqtisodiy makonni shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ID-9413-son "O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida" gi qarori.
3. G'.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli Iqtisodiyot asoslari Toshkent – 2020.B.8.
4. Хусаинов З.А. Инновационные процессы в образовании. – Казань-2014.
5. Шайхуллина И.С. Инновационный менеджмент как средство повышения качества художественного образования в педагогическом университете.